

# Xalq Og'zaki Ijodida, Ingliz Va O'zbek Mifologiyasining Asosiy Personajlarining Boshqa Xususiyatlarini O'rganish

*Rasulov Zubaydullo Izomovich<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola folklorshunoslikdagi eng muhim masalalardan birini o'rganishga bag'ishlangan. Ingliz va o'zbek mifologiyasidagi turli afsonalarda uchraydigan mifologik obrazlarning xarakterli xususiyatari mazkur maqolada tahlillar orqali o'rganiladi. Har ikkala xalq mifologiyasida alohida o'rin tutadigan asarlardan olingan obrazlar xarakterlanadi.

**Kalit so'zlar:** badiiy tafakkur, mifologik obrazlar, genezis, sehrli obrazlar, fentezi janri, ma'budlar va zulmat kuchlari, etnografik tadqiqotlar, qahramonlik poeziyasi.

Mif xalq dunyoqarashi va og'zaki ijodning qadimiy shakllaridan biri bo'lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida g'oyat katta o'rin tutadi. Miflarning yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari va badiiy adabiyotning shakllanishidagi ahamiyati kabi masalalarni o'rganish jahon adabiyotshunosligining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki folklor an'analari orqali yetib kelgan qadimgi miflarning ayrim namunalari va ba'zi bir an'anaviy mifologik obrazlar yozma adabiyotda ham qo'llanilgan.

Mifologik obrazlar – xalq, ogzaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bolgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bolib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda oziga kochiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bolgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qad. mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan.

Mifologik obrazlar ingliz hamda o'zbek adabiyotida ko'p yillar davomida og'zaki va yozma adabiyoti namunasi sifatida keng foydalanilmoqda va hozirgi zamonaviy adabiyotda ham mifologik obrazlarni uchratish mumkin. Elflar, parilar, goblin va trollar, ajdarholar ingliz adabiyotida eng ko'p uchraydigan mifologik obrazlardir. “Beovulf” asarida ham Keynning farzandlari “ylfe” (elf) ekanligi aytilgan. Elf va sohiralarni ma'nodosh degan qarashlar ham mavjud. Shunga qaramay ularning kelib chiqqanligi farqlanadi. Misol uchun sohira (fairy) so'zi roman tillaridan olingan bo'lib, zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladi. Elf esa ingliz tilidan olingan bo'lib, Skandinaviya mifologiyasidan kelib chiqqan.

Angliya qirolichasi Yelezaveta I sehrli obrazlarga boy asarlar yaratishga sabab bo'ldi. Unga oddiy xalq sehrli qirolichadek ehtirom ko'rsatar va bu ko'pgina ijodkorlarni betakror asarlar yaratishiga zamin bo'ldi. Misol uchun, “Faerie Queene” Elmund Spenserning qirolichaga deb yozgan birinchi sherini aytish mumkin. Ushbu she'rda sohira obraziga ijobiy obraz sifatida qaralgan va ba'zan muammolar keltirib chiqaradigan obraz sifatida ham gavdalanirilgan.

XX asrga kelib, sohira obrazi fentezi janrining buyuk namoyondasi J.P.Tolkin asarlarida kuzatildi. Fentezi- g'ayrioddiy va ba'zan tushunarsiz syujet taxminiga asoslangan fantastik adabiyot turi hisoblanadi. Fantastikadan farqli jihati shundaki, unda adabiyot namunalari turli xil mifologik timsollar, ya'ni xudolar, jinlar, sehrgarlar va hayvonlar gaplasha oladigan narsalar, arvohlardan keng foydalaniladi[1;34b.].

<sup>1</sup> BDU, ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, e-mail: ; Bobojonov Shoxrux Ulug'bekovich, BDU 2-bosqich magistranti



Qadimiy turkiy xalqlar mifologiyasida ham jonivorlarga insoniy xususiyat berish va bir jonivorda bir qancha jonivorlar xususiyatini mujassamlashtirish holatlari uchraydi. Jumladan, bo'riga aylanish xususiyatiga ega bo'lgan odamlar yoki aksincha odam qiyofasiga kira oladigan qashqirlar haqidagi ertak va afsonalar bugungi kunga qadar o'zbek va turkiy xalqlar orasida saqlanib qolgan bo'lib, ajdarho obrazi ham shu kabi xususiyatlarni o'zida jamlagan. Turkiy xalqlarda bo'ri obrazi kuch-qudrat, bilim, donolik, oilasiga sodiqlik ramzi sifatida gavdalanagan va ilohiylashtirilgan bo'lsa, ko'plab Osiyo mamlakatlari, jumladan Sharqiy Osiyo hududlarida ajdarho obrazi ham ushbu hususiyatlarga ega bo'lgan. Ajdarho genezisiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u dunyo yaralishi haqidagi deyarli barcha mif va afsonalarda namoyon bo'ladi. Shveysariyalik din tarixi olimi va psixiatr K. G. Yung fikriga ko'ra, insoniyat kaltakesaksimon mavjudodlar haqida, insoniyatning uzoq ajdodlari yashagan shafqatsiz voqe'liklar haqidagi ma'lumotlarni o'z xotiralarida saqlab qolgan K.G.Yung fikriga qo'shiladigan bo'lsak ajdarho obrazining gibrid qiyofasining yuzaga kelishida tabiat hodisalari, koinot, yorug'lik va zulmat kuchlari, insoniyat hayotida sodir bo'ladigan tasodifiy o'lim fojealariga nisbatan qadimiy odamlarning dunyoqarashi sabab bo'lgan. Dunyo miflarida ma'budlar va zulmat kuchlari o'rtasida yuz bergan janglar haqidagi hikoyalar (asosan qadimiy yunon, skandinav va boshqa xalqlar miflari) tez-tez uchraydi. Ularga ko'ra, ma'budlar o'lgan maxluqlar bilan jang qilishlariga to'g'ri kelgan va ushbu maxluqlar ko'p xollarda ajdarho obrazida namoyon bo'lgan va salbiy qahramonlar sifatida yoritilgan. Ajdarho haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlari (ierogliflar) qadimgi Misr bitiklari va shumer-bobil xalqlari dostonlarida keltirilgan bo'lib, ushbu manbaalarda ajdarho azaliy yovuzlik obrazida namoyon bo'ladi. Qadimgi Bobilda, nabirasi Marduk tomonidan o'ldirilgan ma'buda Tiamat ajdarho obrazida keltiriladi. Shuningdek, qadimgi Misrda, quyoshni yeb quyishga intiluvchi ulkan ajdar qiyofasida Apep namoyon bo'ladi. Unga qarshi ma'bud Ra kurashadi va g'olib chiqadi. Keyinchalik ajdarlarga qarshi ma'budlar emas, yarim ma'budlar kurash olib boradigan afsonalar paydo bo'la boshladi. Misol tariqasida Qadimgi Yunoniston qahramoni Geraklning o'n ikkinchi qahramonligini keltirish mumkin. Vaqt o'tgani sari, dastlabki o'rta asrlarda Don Kixotga o'xshash jasur risarlarning yovuz ajdarlarga qarshi olib borgan kurashlari to'g'risida afsona va rivoyatlar paydo bo'la boshladi (Nibelunglar uzugi, german-skandinav xalqlari dostoni). Olib borilgan etnografik tadqiqotlar natijasida Markaziy Osiyoda ajdarholarga nisbatan ikki xil munosabatda bo'lingani aniqlangan. Misol uchun, G. P. Snesarev tadqiqotlariga ko'ra, qadimgi Xorazmda ilon va ajdarho salbiy va ijobiy talqin qilingan. Bunday xolatning yuzaga kelishida, ushbu obrazning Markaziy Osiyodagi dastlabki ijobiy talqiniga keyinchalik boshqa madaniyatlarining qo'shilishi bilan izohlash mumkin [2;45b.]. Jumladan, Markaziy Osiyoga Makedoniyalik Iskandarning yurishlari natijasida vujudga kelgan ellinizm ta'sir ko'rsatganligi ma'lum. Ellinizm ta'sirida dastlab ijobiy talqin qilingan ilon - ajdarho obraziga nisbatan yunonlarning salbiy qarashlari ta'siri ko'zatilganligi namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Firdavsiyning Eron va Turon qarama-qarshiligi aks etgan "Shohnoma" asarida bosh qahramon Rustamning dahshatli ajdarho bilan jang qilgan epizodi mavjud. Agar "Shohnomada" Eron va Turon qarama-qarshiligi aks ettirilganini e'tiborga olsak, Eron qahramoni bo'lgan Rustamning ajdarho bilan jang qilishi mantiqan ajdarhoning Turon tomonda turib jang qilganini anglatadi, shu tariqa qadimiy Eron va Turon xalqlarida ajdarho obrazi ikki xil, ya'ni forslarda salbiy va turkiylarda ijobiy obrazda tasnif qilingani ma'lum bo'ladi. Bunday misolni yuqorida keltirilgan ruslavyan mifologiyalariga nisbatan ham keltirish mumkin. ko'chmanchi turkiy xalqlar bosqinlari ta'sirida, turkiy xalqlar orasida ijobiy xususiyatga ega bo'lgan ajdarholar rus mifologiyasida asosan qaroqchi va talonchi obrazida gavdalanadi. Bunday obrazlarga yana qadimiy turkiy xalqlarda muqaddas hisoblangan bo'ri obrazini kiritish mumkin. Ko'chmanchi turkiylar bosqinidan ziyon ko'rgan rus va yevropa xalqlari mif va ertaklarida bo'ri ajdar singari salbiy obrazda gavdalanadi. Markaziy Osiyo turkiy xalqlari folklorida, ayniqsa alplar haqidagi afsonalarda "Ilon-bobo" haqidagi tasavvurlar saqlanib qolingan.

Ingliz folklori nemis, kelt va xristian manbalari asosida paydo bo'lgan. Aynan shuning uchun ham faqatgina bir necha an'analar butun Angliya bo'ylab tarqalgan, boshqalari esa ba'zi hududlargagina tegishli bo'lib qolgan. Buyuk Britaniya bolalar adabiyoti hech qachon shaxsan bolalar adabiyoti bo'lmagan va undan har doim kattalar adabiyoti uchun metaforalar hamda obrazlar vositasining xazinasini sifatida foydalanilgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, tumanli Albionning chuqur tarixi davomida qandaydir g'ayritabiiy odat mavjud: "kattalar" kitobini maroq bilan bolalar o'qiydi, kattalar



esa bolalar uchun yozilgan asarlarni ishtiyoq bilan qo'lg'a oladilar. Shunday "kattalar" bolalar adabiyotiga Angliyaning qadimgi ingliz poemasi "Beovulf" va "Aylana stol atrofidagi ristarlar" haqidagi afsonalar kiradi. Bunda shunday dalilga e'tiborni qaratish joizki, boshqa davlatlar kabi Angliya ham murakkab tarixiy davrlarni boshdan kechirgan. R.Kipling ertagining qahramoni Pak ta'biri bilan aytganda, tumanli Albionaga xudolar kelishgan va ketishgan, ular bilan birgalikda esa turli xalqlarning madaniyatlari ham kelib ketishgan. Qadimgi zamin tarixiga og'ir qismatlar yozilgan: u bir necha bor ishg'ol qilingan hamda talon-taroj etilgan. Avvaliga Stezar boshchiligidagi rimliklar, keyin piktlar hamda skotlar, keyinchalik esa Genget va Gorz boshchiligidagi anglosakslar bostirib kirishgan. IX asrda anglosakslarning etti grafligi (davlati) qirol Egbert boshchiligida birlashtirilib, Angliya degan umumiy nom oldi [3;78b.]. Egbertning o'limidan so'ng anglosakslarga butun G'arbiy Yevropani larzaga solgan shimol xalqi – normanlar yoki vikinglar bilan kurashishga to'g'ri keldi. Birinchi bo'lib Angliyaga dataliklar bostirib kirib, o'zlarining davlatlarini – Data huquqi viloyatiga asos solishdi. Ularning istilosidan Angliyani Buyuk Alfred xalos qildi (880-893 yillar). Lekin bu g'alaba qisqa muddatli bo'lib, vikinglar Angliya tinchligiga tez-tez rahna solib turadigan bo'lishdi. Faqatgina bir necha yillardan so'ng Data va Angliya qiroli Knut o'limidan so'ng Angliya datalardan xalos bo'ldi va normandlar sarkardasi jahongir Vilgelm boshchiligidagi qo'shinlar istilosi ostida yashadi. Shu vaqtdan boshlab bir necha asrlar davomida Angliyada fransuz hukmronligi ta'siri davom etib keldi. Yagona anglosakscha qahramonlik poeziyasining namunasi sifatida bizgacha xalq an'analari voqeligini saqlab qolgan "Beovulf" dostoni etib kelgan va bolalar uchun minglab hikoyalar hamda qo'shiqlarda dunyo bo'ylab taralgan. Doston asosida badiiy filmlar, multfilmlar suratga olingan. Dostonning syujeti ikkiga bo'linadi, bosh qahramonning shaxsi va uning qahramonliklarining tasviri: birinchi qismda Beovulf botqoq maxluqi Grendel hamda uning qahrli va badbashara onasi bilan olishishi haqida, ikkinchi qismda – ellik yil davomida davlatni baxtli, farovon boshqargani, keyin olovli ajdar bilan olishib, yaralanib umrini oxirlagani haqida bayon qilinadi. Asarning xalq folklorida kelib chiqqan, deyilishiga ham asos bor. Ko'p tadqiqotchilar dostonning bosh qahramoni ayiqdan kelib chiqqan ertak qahramoniga juda o'xshash, bunga uning ismi guvohlik berishini, chunki qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan "Beowulf" "asalari bo'risi", ya'ni ayiq degan ma'noni anglatishini dalil deb ko'rsatishadi. Markaziy epizodlarning birinchi qismida qadimgi Islandiya sagalari bilan parallellik kuzatiladi. Bu narsa asarning juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi qismi esa umumolmon ertaklari bilan hamohangdir. Olimlarning aksari qismi "Beovulf" Angliya xristianlikni qabul qilmasdan oldin yaratilgan desa, hozirgi zamon olimlari asar VIII yoki IX asrlarda xristian kliriklari tomonidan yozilgan, degan fikrni ilgari surishadi. Bunga esa, asarning bir butunligiga monelik qiluvchi, Eski Tavrotdan katta hajmdagi katta hajmdagi parchalarning keltirilishi guvohlik beradi. "Beovulf" alliteration she'rlar shaklida yozilgan [4;56b.]. Zamonaviy ingliz tilida "Beovulf" bir necha marotaba tarjima qilingan, lekin Uilyam Morris va Archibald Stronglarning tarjimasi eng zo'r, deb tan olingan.

Ingliz xalq mifologik afsonalar obrazlari haqida gap borarkan, shubhasiz, birinchi navbatda hammaning xayoliga Qirol Artur keladi. Arturning hikoyasi tafsilotlari asosan folklor va adabiy ixtirolardan iborat bo'lib, zamonaviy tarixchilar umuman uning tarixsiz ekaniga qo'shilishadi. Arturning siyrak tarixiy kelib chiqishi turli manbalardan, shu jumladan Annales Cambriae, Tarix Brittonum va yozuvlari Gildaslarga aloqador ekanligi ta'kidlab kelinadi. Arturning nomi dastlabki she'riy manbalarda ham uchraydi. Artur - bu afsonalarning markaziy figurasi hisoblanadi. Afsonaviy Artur xalqaro miqyosdagi qiziqish sifatida rivojlandi. Artur Buyuk Britaniyani inson va g'ayritabiiy dushmanlardan himoya qiladigan buyuk jangchi yoki ba'zan Artur afsonasining mavzulari, voqealari va xarakterlari matndan matngacha juda xilma-xil bo'lganiga qaramay, uning kanonik versiyasi mavjud emas, ammo Geoffreyning voqealari ko'pincha keyingi hikoyalar uchun boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Jefri Arturni sakslarni mag'lubiyatga uchratgan va ulkan imperiyani barpo etgan Buyuk Britaniya qiroli sifatida tasvirilaydi. Hozir Arturiya hikoyasining ajralmas qismiga aylangan ko'plab elementlar va hodisalar Geoffrining hikoyalarida uchraydi. Jumladan, Arturning otasi Uther Pendragon, sehrgar Merlin, Arturning rafiqasi Ginever, qilich Excalibur, Arturning kontseptsiyasi Tintagel va boshqalar haqidagi hikoyalar Qirol Artur afsonasiga bevosita aloqador hisoblanadi.



Ingliz va o‘zbek folklorida ham mifologik obrazlardan keng foydalaniladi va bu juda ham qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ularda har bir xalqning uzoq asrlik tarixiy kechmishlari, o‘ziga xos milliy udumlari, e’tiqodiy va axloqiy qarashlari ifoda topganligi bilan e’tiborni jalb etadi.

Adabiyotshunoslik va folklorshunoslikda “mif” va “mifologizm” kabi keng ko‘lamli va xususiyatli terminlar asrlardan buyon turli elat adabiyotida qo‘llanilgan va millatning yashash tarzini o‘zida mujassamlashtirgan. Mifologik obrazlar noodatiy ekanligi bilan har ikkala adabiyot namunalarida ajralib turadi. Elf, pari, goblin, xobbit, ajdarho, gnom kabilar ingliz adabiyotining og‘zaki namunalarida ko‘p uchraydigan mifologik obrazlardandir. O‘zbek adabiyotining an’anaviy mifologik obrazlariga dev, pari, ajdar, semurg‘, farishta, shayton, xizr va boshqalarni tashkil etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Imomov K. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 2-tom. T. Fan. 1989.320-b.
2. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning syujet va motivlari. O'zbek tili va adabiyoti. 1996. №5.
3. Talbot Norman. Where Do Elves Go To? Tolkien and a Fantasy Tradition. *Mythlore*, 2006. – R. 94-106.
4. Seamus Heaney. *Beowulf*. Faber & Faber.– London, England, 2007. –P. 222-228.
5. [www.englishfolklore.com](http://www.englishfolklore.com)
6. Izomovich, R. Z., & Fazliddinova, U. D. (2022). Influence of orthography in teaching english and second language acquisition. *Thematics Journal of Applied Sciences*, 6(1).
7. Расулов, З. И. (2017). Особенности позиционными типологик ва лингво маданиятшunoslik ўрни. 56. *Илмий мақ* [https://scholar.google.com/citations?n\\_for\\_view=BMFYyZIAAAAJ](https://scholar.google.com/citations?n_for_view=BMFYyZIAAAAJ), 7.
8. Izomovich, R. Z., & Mohinur, N. (2023, May). TIL O‘QITISHDA MANIPULYATSIYANING O‘RNI VA MUHIM ANAMIYATI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 312-314).
9. Джумаева, Н. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ АНТРОПОЦЕНТРИЗМА В ОБРАЗЕ МАГИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ В СКАЗКАХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 18(18). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7325](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7325)
10. Djurabayeva, D. N. (2022). Expression of anthropocentrism in the image of magical objects in fairy tales. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1043-1047.
11. Джумаева, Н. (2021). ТИЛСИМ ПРЕДМЕТЛАРНИНГ ЭРТАКЛАРДАГИ ТАЛҚИНИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ МИСОЛИДА). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
12. Djumayeva, N. (2020). The Role of Irony in “Pride And Prejudice” by Jane Austen. In *Язык и культура* (pp. 8-13)
13. Джумаева, Н. (2023). THE ESSENCE OF CONCEPT IN COGNITIVE LINGUISTICS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 44(44). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/11449](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11449)

